

**O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA
MADANIYAT INSTITUTI**

**“Musiqiy teatr aktyorligi” bo’limi
3-kurs talabasi**

Maqom asoslari fanidan

MUSTAQIL ISH

Mavzu: Farg’ona-Toshkent maqom yo’llari



**Bajardi: Karimov B.
Tekshirdi: Oyhadjayeva SH.**

Toshkent-2015

Reja

Kirish

Asosiy qisim

1. Farg'ona maqom yo'lari

2. Toshkent maqom yo'lari

Xulosa

Foydalingan adabiyotlar

Kirish

Maqom nima? Salobatli maqom turkumlarida qanday g'oya yoki ta'limotlar ifoda etilgan? Nima sababdan maqom san'ati ko'p asrlardan buyon o'z mohiyati, demakki, badiiy qiymatini yo'qotmasdan kelmoqda? Bu kabi savollar aslida tubdan serqirra va bir-biriga tutash madaniy-tarixiy-nazariy masalalar bilan uzviy bog'lanib ketganki, natijada ularga bir yo'la yoki shu damdayoq bir jihatli javob berish mushkuldir. Shu bois qayd etilgan savollarimizga bu san'at salsalalaridan javob axtarish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Zotan "har qanday musiqiy madaniyatni nafaqat moddiy-akustik fenomen tarzida, balki eng avvalo ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida tushunmoq zarur".

Maqomlar tarixini o'zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtai nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy ohang qatlamlarini o'rganish tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda hozirda bizga ma'lum tom ma'nodagi maqomlar bo'lmagan albatta. Zotan bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichi bilan shartlanganki, bu (ikkinchi davr) xususida o'z o'rnida mufassalroq to'xtamga o'tamiz.

Ta'kid joizki, maqom kuy ohanglarini qadimiy qatlamlarini o'rganishga ko'mak bo'luvchi maxsus musiqiy risolalar bo'lmasa-da, ammo bu borada eng asosiy va muhim manbaalar bizning davrga qadar yetib kelgan. U ham bo'lsa ajdodlarimizdan ulkan ma'naviy meros qolgan "Shashmaqom", "Xotazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari"dir. Maqom kuylarining xususiy "til" tuzilish (sintaksis) qurulumalarini malakali idrok va tahlil eta olish asosida ular tarkibida uyg'unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olish imkoniyati mavjud. Ayni paytda bizga ma'lum rivoyatlar mazmunidan ham zarur xulosalar chiqarish mumkin.



Farg'ona-Toshkent maqom

yo'llari — Toshkent va Farg'ona vodiysi (Qo'qon, Namangan, Andijon, Farg'ona, Marg'ilon, Quva va b.) musiqa amaliyotida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma nomi. Shashmaqom va Xorazm

matsomlaripxya farqli o'laroq alohidaalohida cholg'u va ashula yo'llaridan iborat. Jumladan, cholg'u yo'llari "Nasrullo I—V", "Munojot I—V", "Ajam va taronalari", "Miskin I—V", "Segoh I—III", "Sayqal I—II", "Mirzadavlat I—II", "Cho'li Iroq", "Chorgoh", "Surnay Iroqi", "Surnay Dugohi" "Surnay Ushshog'i" kabilar mashhur. Ashula yo'llari alohida bir qismli ("Segoh", "Toshkent" irog'i" kabi) namunalardan tortib keng ko'lamli turkumlardan tashkil topgan. Ayniqsa, besh qismli "Chorgoh", "Bayot", "Bayoti Sheroziy", "Gulyor—Shahnoz" va yetti qismli "Dugoh—Husayn" ashula yo'llari ommalashgan. Ular mumtoz she'riyat (Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy va b.) namunalari asosida o'qiladi.

Farg'ona—Toshkent maqom turkumlarining qismlari raqamlar vositasida ajratiladi (mas, "Miskin I", "Miskin II", "Bayot I"). Ayrim hollarda tarkibiy qismlarning maxsus nomlari ham uchraydi. Jumladan, "Miskin" cholg'u turkumining III kismi "Adoiy", IV qismi "Asiriy", "Nasrullo"ning II qismi "Chavandoz", III qismi "Qashqarcha", IV qismi "Tarona", V qismi "Ufar" deb nomlanadi. Shuningdek, FARG'ONA—Toshkent maqomiy.ning cholg'u kuylarining ayrimlariga nisbatan "Mashq" atamasini qo'llash odati mavjud (mas, "Mashqi Chorgoh", "Mashqi Dugoh—Husayn" va h.k.).

FARG'ONA—Toshkent maqomi y.larining shakllanish ildizlari o'rta asrlarda mashhur bo'lgan O'n ikki maqom tizimi va undan ham oldinroq mavjud turkumli asarlarga borib taqaladi. "Yo'llari" atamasi ham shunga ishora etadi. Zero "maqom" atamasidan avvalroq musiqa ilmi amaliyotida "yo'l" ma'nosidagi "roh", "tariqa", "ravashin" kabi tushunchalar keng qo'llanib kelingan. Shashmaqomdan fark/sh ravishda F,— Toshkent maqomiy. nafaqat xon saroylarida, balki xalq



hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlarda ham mudom ijro etilgan. Mas, surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur, g'ijjak

ijrolari hamda ashula yo'llari uy sharoitlarida o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'lgan. Ayni paytda, bu maqomlarda Farg'ona—Toshkent musiqa uslubiga xos yalla, ashula, katta ashula janrlarining xususiyatlari o'z aksini topgan. Bu holat ularning musiqiy tili xalqchil va nisbatan ommaviy ekanligi, xalq orasida mashhur bo'lishi sabablaridan biridir.

FARG'ONA—Toshkent maqomiy. ijrochilari mazkur an'anani odatda mashhur ustozlardan o'rganishgan. Shu tarzda bu maqomlarni bizga yetkazib bergan taniqli talqinchilar qatorida Abduqodir naychi, Ahmadjon qo'shnay, A.Yusupov (surnay), Shobarot tanburchi, A.Abdullayev (tanbur), M. Najmiddinov (dutor, tanbur), K.Jabborov (g'ijjak, dutor), S.Kalonov (nay), Faxriddin Sodiqov (chang, dutor), G'.Toshmatov (g'ijjak), T.Alimatov (tanbur, dutor), hofizlar — Sh.Shoumarov, To'ychi hofiz, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sodirxon hofiz, Rajabiylar, Rasulqori Mamadaliyev kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlari katta. Bastakorlardan T. Jalilov, O. Hotamov, FARG'ONA Mamadaliyev, so'nggi yillarda A. Ismoilovlar FARG'ONA—Toshkent maqomiy. an'alarida turkumli va alohida ijro etiluvchi asarlar yaratishgan.

Maqomlarni ijro etishga ixtisoslashgan xonanda va sozandalar guruhi. Ularning ijro dasturlaridan asosan maqomlar, shuningdek, o'zbek bastakorlarining kuy va ashulalari, xalq musiqasi na-munalari o'rin oladi. 20-a.ning boshlariga qadar "M."a.lari Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Toshkent va b. yirik shaharlarda, xususan saroy sharoitida faoliyat kursatgan. Keyinchalik "M."a.lari yangicha shart-sharoitlarda mumtoz milliy musiqa ijodiyotini keng targ'ib qilish maqsadida qayta tuzilgan. O'tmishda "M."a.lari tomonidan maqomlar yaxlit turkum holda yoki ularning alohida-alohida cholg'u va ashula qismlari ijro etilgan.

Bunda, jumladan, Shashmaqomttt Talqin, Nasr, Savt kabi sho''balarini aytishga ixtisoslashgan hofizlar talqinxon, nasrchi, savtxon deb yuritilgan. Ularga tanbur, doyra yoki ixcham cholg'u ansambli jo'rlik qilgan. Jumladan, 19-a.ning oxirida Buxoroga mos "M."a. tarkibida, odatda, 2 ta tanbur, dutor, qo'biz (yoki sato), doira va 2—3 nafar jo'rovoz hofizlar bo'lgan. 1920-y.



larda tashkil topgan Sharq musiqa maktablarida, Samarqand musiqa va xoreografiya institutida maqom ijrochiligidan saboq berishda Opga Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Matyoqub Harratov kabi yirik maqomchi ustozlar xizmat qilganlar; 2) O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi

Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli. 1959 y.da akademik Yu.Rajabiy tashabbusi bilan tuzilgan. 1989 y.dan Yunus Rajabiy nomida. Respublika radiosi huzurida 1927 y.da tashkil topgan o'zbek xalq cholg'ulari ansambli (rahbar Yu. Rajabiy), shuningdek, Hoji Abdulaziz Rasulov, Domla Halim, To'ychi hofiz kabi atoqli hofizlarning boy ijodiy-ijrochilik an'alariga tayanib ish tutdi. Ansamblga tajribali xonanda va sozandalar jalb etilib, milliy cholg'ulardan tanbur, dutor, chang, rubob, g'ijjak, sato, nay, qo'shnay, doira va b. kiritildi. Ansambl tomonidan, asosan, Buxoro va Farg'ona-Toshkent makom yo'llari mukammal o'rganilishi hamda noyob ijro uslublari o'zlashtirilishida FARG'ONA Sodiqov (1961—76 yillarda changchi va musiqa rahbari), J. Sultonov, O. Imomxo'jayev, A. Haydarov, K. Ismoilova, B. Dovidova, O. Alimahsumov, O. Qosimov, T. Alimatov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar — K. Mo'minov, A. Ubaydullayev, B. Zirkiyev, I. Katayev, S. Aminov, Sh. Ergashev, X. Qodirova, H. Yusupova, 3. Sodiqov, I. Qodirov, shuningdek, I. To'rayev, D. Sottixo'jayev, U. Otayev va b.ning ulushi katta bo'ldi. Bu jamoa ijrosida Shashmaqom, Farg'ona—Toshkent maqom yo'llari magnit tasmasi hamda grammofon plastinkalarga yozib olinib, bir necha bor ko'paytirilgan. Yu. Rajabiy rahbarligida keng faoliyat ko'rsata

boshlagan bu ijodiy jamoa katta va o'ziga xos maktab yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ansamblga badiiy rahbar sifatida ishlagan Yu. Rajabiy (1959—76), O. Alimahsumov (1976—79), Sh. Mirzayev (1979—81), G'. Toshmatov (1981—86), A. Ismoilov (1989—96 va 1999 y. dan), Isroil Vahobov (1996—99)larning xizmatlari katta. So'nggi davrdagi ansambl tarkibi ud va qonun cholg'ulari bilan kengaydi, maqomlarning ijro talqinlari yanada ko'paydi. "M."a. ijrochiligining keyingi ravnaqida A. Ismoilov va A. Abdurashidov, O. Hotamov, O. Otaxonov, E. Lutfullayev, H. Rajabiy, M. Tojiboyev, M. Yo'ldoshev, aka-uka Vahobovlar, B. Do'stmurodov, T. Maxmudov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar A. Xoltojiyev, M. Dalabosova, N. Sattorova, A. Dadayev, M. Ziyoyeva va b.ning munosib hissasi bor. Ansambl sozanda va xonandalari nufuzli musiqiy anjumanlar, shu jumladan, YUNESKO qoshidagi xalqaro musiqa kengashining VII kongressi (Moskva, 1971), Xalqaro musiqashunoslik simpoziumlari (Samarqand, 1978, 1983, 1987), "Sharq taronalari" xalq-aro musiqa festivallari (Samarqand, 1997, 1999, 2001)da muvaffaqiyatli ishtirok etgan; 3) O'zbekistonning turli joylar (madaniyat saroylari, o'quv yurtlari, viloyat televideniyesi va b.)da tashkil topgan professional va havaskorlik makom ansamblari 1970 y.lardan faoliyat ko'rsatmoqda (Xorazm, Andijon, Buxoro, Samarqand, Qo'qon va b.). "M."a.lari ustozona makom ijrochiligi an'analari davom ettirgani holda boshqa mumtoz kuy va ashulalarni hozirgi zamon tinglovchilarining didi, talab va ehtiyojlariga moslab ijro etilishiga alohida aqamiyat beradi. 1972 y.da Toshkent konservatoriyasi (hozirda O'zbekiston davlat kon-servatoriyasi) tarkibida Sharq musiqasi (hozirda An'anaviy ijrochilik) kafedrasi ochilishi bilan sozanda talabalar uchun "M."a. nomli o'quv-amaliy fani joriy etildi. Konservatoriya talabalaridan iborat cholg'u "M."a. ijrosida Buzruk maqomi cholg'u qismlari (1973, rahbar FARG'ONA Sodiqov), shuningdek, Shashmaqomning barcha mushkilot yo'llari (rahbar dotsent A. Hamidov) ilk bor mukammal holda yozib olinib, 5 ta maxsus grammofon stereo plastinkalar (jami 11 dona) chiqarilgan (1987—91). Xorazm maqomlari to'liq holda 1990-y.larda Xorazm viloyat teleradiosi qoshida tuzilgan "M."a. (badiiy rahbar R. Jumaniyozov) ijrosida magnit tasmasiga yozib olingan. Hoz. musiqa va

san'at kollejlari hamda ba'zi boshlang'ich musiqa va san'at maktab va litseylarida ham maqom yo'llari o'qitilmoqda. 1983 y.dan muntazam o'tkaziladigan Maqom ijrochilarining respublika tanlovlarida "M."a.lari ham ishtirok etadi. 1991 y.da bu tanlovga Yunus Rajabiy nomi berilgan.



Shu asnoda O'zbekistonda mavjud maqomlar (Shashmaqom, Xotazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari) musiqasiga nazar tashlar ekanmiz, uning har biri o'zgacha tarovatli kuy-navolari negizida eng mukammal darajada uyushgan parda (tovush) tizilmalari borligi e'tiborimizni o'ziga jalb qiladi. 7 ta asosiy pardalari o'zaro uyg'un, ohangdosh tovushlar nisbatiga qurilgan bu nag'amot uyushmalari kim tomonidan va qachon ijod etilgan? Bu borada yuritilgan mantiqiy fikr-mulohazalar asosida ularning shakllanish vaqtini keyingi davrlarga, ya'ni musiqa san'ati taraqqiy ergan asrlarga taaluqli deb o'ylash mumkin. Biroq jahon musiqa tarixi bunday xulosani inkor etadi. Chunki, maqom pardalariga o'xshash yeri asosiy pog'onali (pardali) tovush tizilmalari Sharqu-G'arb musiqa madaniyatiga juda qadim zamonlardan ma'lumdir. Xususan, qadimgi yunonlar bu kabi parda uyushmalarining bir necha turlarini bilibgina qolmay, balki ularning inson tarbiyasida alohida muhim o'rni borligini ham ta'kidlaganlar. Donishmand Fisog'urs (Pifagor) esa mukammal pardalarning inson ruhiga favqulodda ta'siri sabablarini ilmiy bilish maqsadida ularni matematik usullar bilan o'rganib chiqqan (bu usullar keyinchalik o'rta asr Sharq musiqashunos olimlari tomonidan ham qo'llangan). Pirovardida ularning tarkibida yetarli me'yerda uyg'un (ohangdosh) tovushlar nisbati (oktava, kvinta, kvarta) borligini hamda ularning sonlardagi ifodasi dastlabgi to'rtb raqamga muvofiq kelishini (oktava-2:1; kvinta-3:2; kvarta-4:3) aniqlangan.

Demak, mukammal uyushgan parda tizilmalari dastlab ilmiy-nazariy asosda ham ijod etilmagan, balki ularda mavjud go'zal ohang uyg'unliklari ilmiy asosda kashf etilgan edi.

Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko'ra maqomlarning eng qadimiy namunalari payg'ambarlardan meros qolgan. Xususan, XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning “Tuhfatus-surur” nomli risolasida xabar berishicha, avvaliga yetti payg'ambar nomlari bilan bog'liq yettita maqom bo'lgan. Bunda “Rost”maqomi – Odam alayhissalomdan, “Ushshoq” – Nuh alayhissalomdan, “Navo” – Dovud alayhissalomdan, “Hijoz” – Ayub alayhissalomdan, “Husayniy” – Yoqub alayhissalomdan va “Rahoviy” – Muhammad sallallohu alayhi vassalamdan meros qolganligi haqqidagi rivoyatlar bayon etiladi. Muallif bu axborotni yetkazishda Xo'ja Abdulqodir ibn Marog'iy, xo'ja Safiuddin ibn Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloir kabi juda obro'li ustozlar fikriga tayanganligini ham ma'lum qiladi.

Shuni aytish kerakki maqomlar musiqasiga oid “maqom” atamasidan avval “yo'l” ma'nosini anglatuvchi “roh”, “tariqa”, “ravish” kabi atamalar qo'llanib kelganligini Darvish Ali Changiy bayon etgan ma'lumotlarni quvvatlashga xizmat qilishi mumkin. Olloh taolloning yer yuzidagi elchilari bo'lgan payg'ambarlarning insonlarga chinakam baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatganlar. Ulardan qolgan ma'naviy ta'limot namunalari jamoa-qavmlar orasida alohida e'zozlanib, avloddan-avlodga go'zal ruhiy meros sifatida o'tib kelgan. Inson tinglovi va idroki uchun eng ma'qul va manzur bo'lgan mukammal pardalar ham dastlab shu meros negizida (yoki uni nazariy jihatdan o'rganish asnosida) hosil etilib, so'ngra shu (parda) “yo'llar” asosida turli kuylar rivojlantirilgan (yoki kuylarning yangi namunalari ijod etilgan) bo'lsa kerak.

Shu nday qilib, qadimgi dunyodan meros kelayotgan mukammal parda uyushmalari keyinchalik maqom tizimlari yuzaga kelishida, shuningdek, bastakorlar-u, xalq musiqa ijodiyoti rivojida ham muhim poydevor yanglig' ahamiyat kasb etgan.

Maqomlarda mavjud yana bir musiqiy qatlamni xalq og'zaki musiqa ijodiyotining ko'hna namunalari tashkil etadi. Hayratlanarli tomoni shundaki,

maqomlarda xalq musiqasining hatto eng qadimiy namunalariga oid “izlari” ham saqlangan. Xususan bu izlarni bizgacha yetib kelgan Navro'zi Ajam, Navro'zi Xoro, Navro'zi Sabo nomli maqom asarlarida ko'ramiz. Shundayki, bu asarlarning kuy negizlarida mutaxassis olimlar tomonidan “xalq kuyining eng qadimiy namunasi” (“birlamchi chiziq” –G. Shenker) tarzida tasnif etilgan quyi oqim kuy ohanglari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu hol bejiz emas, albatta. Ma'lumki, ko'pgina Sharq xalqlari uzoq o'tmishdan buyon Navro'z bayramini keng nishonlab, shu munosabat bilan ma'lum kuy va ashilalarni ijro etib kelganlar. O'ziga xos mavsumiy marosim musiqasi sifatida xalq an'anaviy hayotidan muqim o'rin olgan bu toifa kuylar keyinchalik maqom tizimlariga kiritilib, o'zining yuksak rivojlangan ko'rinishlarga ega bo'lganligi haqiqatga yaqin bo'lsa kerak.

Maqom manbalari qatorida “goh” (ya'ni Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh shaklidagi) kuy tizimlari ham e'tiborga molikdir. Aksariyat olimlar bu toifa kuylar negizi qadimiy kitoblarni ma'lum ohanglarda o'qish an'anasiga dahldorligini, shu jumladan “Avesto” dagi “got” madhiyalariga borib taqalishini faraz qiladilar. Bu o'rinda Avestodagi “Gatheha” so'zi keyinchalik daroy (forsiy) tiliga “Gah” shaklida o'tganligi va yana qator holatalar inobatga olinadi. Bizga ma'lum “goh” kuylarining tahlili esa bu namunalarning ildizlari faraz etilayotgan davralardan-da qadimiyroq ekanligini ko'rsatadi. Xususan, Farg'ona-Toshkent maqomlaridagi Dugoh-Husayniy I kuyi negizida ikki tayanch pardali ohang tizilmasi, Segoh cholg'u kuyida, shuningdek, Shashmaqomning Tasnifi Segoh, Xorazm Segoh maqomining Tani maqom qisimlarida esa uch tayanch pardali ohang tizimlari borligi ayon bo'ladi. Etnomusiqashunos olimlarning qo'lga kiritgan so'nggi yutuqlaridan ma'lumki, bu kabi tayanch tovushli kuy namunalari xalq musiqiy tafakkurining dastlabgi kurtaklaridir.

Albatta, maqomlarda qadimiylikka mansub qanchadan-qancha musiqiy yodgorliklarning o'rni topilmasin, biroq ularni asl holiday qayta “jonlanadi”, sadolanadi deb bo'lmaydi. Zero maqomlarda “saqlangan” musiqiy yodgorliklar,

garchand ularning muhim izlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, o'zlarining yuksak rivojlangan holatlarida namoyon bo'ladi.

Demak, maqomlarning eng qadimiy tarixi aslida tom ma'nodagi maqomlar tarixi bo'lmay, balki ko'proq ularning kelib chiqish manbalari bo'lgan ko'hna davr musiqa kuy qatlamlariga dahldordir. Xuddi ana shu turli musiqa namunalari (demakki, turli uslubli kuy shakllari) asosida usluban badiiy yaxlit maqom tizimlarining shakllanish davrlaridan e'tiboran bevosita mumtoz maqomlar tarixi ham boshlanadi.

Dastlabgi maqom tizimlari qachon va qanday shaklda bo'lganligi xususida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Bu borada Sosoniylar saroyida (shoh Xosrav Parviz davroda – 590-628yil) xizmat qilgan mashhur musiqachi – Borbad (vaf.627y.) ijodiy merosi, xususan unga nisbat beriladigan “7 Husravoniy” tizimi diqqatni o'ziga jalb etadi. Musiqashunos olimlar “7 Husravoniy” tizimi keyonchalik maqomot tizimlari yuzaga kelishida asos bo'lganligi yoki har holda bu tizimning maqomlar shakllanishiga ma'lum ta'siri haqida taxminlarga boradilar. Ammo bu masalada hali bir to'xtamga erishilmaganligini ham qayd etish kerak. Mutaxassislar salobatli maqom tizimlarining yuzaga kelishi kasbiy musiqa qatlami (ijodkorlik, ijrochilik) taraqqiyotining ma'lum tarixiy bosqichi, shuningdek, rivojlangan musiqa ilmi, falsafa va matematika fanlarining mavjudligi, qolaversa buning uchun zarur shahar madaniy muhiti kabi omillar bilan shartlanganligini alohida ta'kidlaydilar. Xususan, atoqli musiqashunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori Ishoq Rajabovning bu boradagi malakali ko'rsatmalari e'tiborlidir: “Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqaviy-estetik qarashlari barkamol bo'lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan... Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Sharq musiqa olimlari musiqani tibbiyot, falsafa va matematika fanlari bilan bog'liq ekanligini uqtirib o'tganlar”. Professor Ravshan Yunusovning ta'kidlashicha: “Sharq maqomoti ko'hna, ancha murakkab falsafiy-estetik, musiqiy-nazariy hamda amaliy asoslarga egadir”.

Shuni aytish kerakki, sharq musulmon olamida maqom tizimlari yuzaga kelishi uchun zarur omillar IX-Xasrlarga kelib jamul-jam bo'lgan edi. Zero, aynan shu davrlarda aniq fanlar rivojlandi, vatandoshimiz Abu Nasr Farobiyning (871-950) musiqashunoslikdagi buyuk xizmatlari o'laroq Sharq musiqa ilmiga asos solindi, kasbiy musiqa amaliyoti yangi bosqichga yuksaldi, shuningdek diniy-falsafiy ta'limot va qarashlar yoyila boshladi. Ana shu bevosita va bilvosita omillar ta'sirio'laroq o'rta asr Sharqining yirik (markaziy) shaharlarida o'n ikki maqom tizimi yuzaga kelgan edi. Mazkur tizim tasnifoti dastlab Safiuddin Urmaviy (tax. 1230-1294) va Qutbiddin Sheroziylarning (1236|37-1310) musiqa ilmiga doir asarlarida ishlab chiqilgan bo'lib, keyingi asrlarda Abdulqodir Marog'iy (XIV), Abdurahmon Jomiy, Zaynulobidin Husayniy (XV), Najmiddin Kavkabiy (XVI), Darvishali Changiy (XVI-XVII) kabi ustoz amaliyotchi va nazoratchi olimlar tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

Xulosa

Maqom borasidagi ushbu ta'riflar nafaqat O'n ikki maqom, balki Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga ham bevosita dahldordir. Bu o'rinda ularning tarkibiy qismlarida "maqom" so'zi bilan birga yana "samo", "gardun", "qalandar", "samandar", "giryas", "nola", "charx", "faryod", "soqiynoma", kabi ko'plab tasavvuf istilohlarining qo'llanishi, shuningdek, asosiy aytim yo'llarida yuksak ishq (Hofiz, Jomiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Bedil va b.) mazmunidagi g'azallarning kuylanib kelinishi, shuningdek, "sof" musiqiy jihatdan esa mukammal parda yo'llari asosida (tariqat jarayonlarining badiiy aksi o'laroq) kuy mavzularini bir tartibda izchil rivojlantirib, ularning avj sifatlarini namoyon etish tamoyili kabi omillarni dalillar qatorida keltirish mumkin. Lekin eng muhim dalil bu buyuk ishq dardi ila yo'g'irilgan maqomlar musiqasidir. Chinki bi musiqa mazmunida pok ruhiyatning asl Go'zallik, chin Haqiqat sari ma'naviy xuruji o'z ifodasini topdi. Binobarin maqomlarning asrlar osha o'z badiiy qiymatini yo'qotmasligi va ayni paytda, millionlab odamlar qalbidan o'rin olganligining asl sabablaridan biri ham ularning teran ma'nolarga yo'g'irilgan go'zal navolari-yu, beqiyus shaklu-shamoillari bilan izohlanadi. Zero, ma'naviyatdan uzilgan har qanday go'zallik oxir-oqibat yoqimsizdir.

Demak, maqomlar nafaqat Sharq musiqa madaniyati, balki insoniyat qo'lga kiritgan ulkan hodisa bo'ldi. Zotan maqomlar insonlarda sof, muqaddas tuyg'ularni uyg'otuvchi, ruhiyatni nafs to'siqlari uzra asl maqomlari sari yuksalishga da'vat etuvchi ma'naviy navolarimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karomatov F., Elsner Yu. Makam I makom, kn: Muzika narodov Azii I Afriki. Vip . M., 1984, s. 91
2. Sach Curt. The Rise of music in the anchient World and West. W. W. Norten E. Company INC. New York., Vinogradov V. S. Klassicheskie tradicii Iranskoy muziki. M., Sovetskiy kompozitor, 1981, s. 30-32; Gruber R. I. Vseobshaya istoriya muziki. I. M., Gosmuzizdat, 1960, s. 69, 114-117
3. Jmud L. Ya. Pifagor I yego shkola. L., Nauka, 1990, s. 91-100
4. Change Darvish Ali. Traktat o muzike. (perevod s pers.-tadj. D. Rashidovoy) Rukopis bib-ka NII Iskusstvoznaniya Inv. N879 s. 23-29.
5. Nazarov A. F. Kniga pesen al-Isfaxani v aspekte mejregionalnix muzikalno-transkulturativnix processov. Dis. Kan. Is-ya, bib-ka NII Iskusstvoznaniya. Inv N812, s . 37